


Barqaror rivojlanish sari yo'l

3-betda o'qing



Bolalar yiliga 40 mingta reklama ko'radi(!)

6-betda o'qing

INSON va qonun

2023-YIL
12-DEKABR
SESHANBA

№ 49 (1409)

www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari



"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!



"Adolat
nashrlari"
telegram
kanalida
kuzating!



www.adolatmarkazi.uz

telegram.me/hudud24official/

facebook.com/hudud24official/



BAYRAM KENG NISHONLANDI

Yangilangan Konstitutsiya dav-latchilik, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq sohasini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Konstitutsiya kunini yuksak saviyada nishonlash maqsadida joylarda tashkiliy-amaliy hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bo'lib o'tdi. Jumladan, Toshkent shahrining Sayilgoh ko'chasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayrami munosabati bilan Adliya vazirligi tomonidan hamkor tashkilotlar bilan birgalikda "Konstitutsiya ko'chasi" tashkil qilindi.

Bayram munosabati bilan fuqarolarning huquqiy bilim va ko'nikmalarini yanada mustahkamlash maqsadida sud, adliya, prokuratura, soliq, bojxona va boshqa o'nlab davlat organlari tomonidan "Konstitutsiya burchaklari" tashkil etildi. Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan o'z soha yo'nalishlari bo'yicha Konstitutsiya normalari va aholini qiziqtirgan boshqa qonunchilik hujjatlari bo'yicha huquqiy maslahat va tushuntirishlar berildi.

Shuningdek, tadbir doirasida aholiga qulaylik yaratish maqsadida davlat xizmatlari markazlari, FHDYo organlari va notariuslar tomonidan sayyor xizmatlar ko'rsatildi. Bolalar va yoshlarga Konstitutsiyada belgilangan normalarning mazmun-mohiyatini ochib beruvchi ko'rgazmali materiallar burchagi, Konstitutsiyaning

yaratilishi, takomillashtirish bosqichlarini ifoda etadigan "Konstitutsiya tarixi" burchagi va foto'rgazmasi ham tashkil qilindi.


Taniqli san'atkorlar ishtirokidagi gala-konsert, talaba-yoshlar tomonidan Konstitutsiya normalari aks ettiruvchi sahna ko'rinishlari va musiqiy chiqishlari, fleshmoblar, harbiylarning chiqishlari tadbirlarga o'zgacha ruh bag'ishladi.

Shuningdek, Konstitutsiyaga ehtiromni namoyish qiluvchi "Adliyadan - adliyagacha" shiori ostida bo'lib o'tgan adliya huquqiy marshi tadbiriga alohida ko'tarinkilik baxsh etdi.

Bayram tadbirida "Huquqiy targ'ibot ishlari a'lochisi" ko'krak nishoni va "Umummilliy Konstitutsiya imtihoni" g'oliblarini taqdirlash marosi-mi ham bo'lib o'tdi.

O'z muxbirimiz

2 KONSTITUTSIYAGA 31 YIL

SHAHARSOZLIKKA
OID MASALALARXALQIMIZ BILAN
BAMASLAHAT YECHILADI

Yangilangan Konstitutsiyamizning 1-moddasida “O‘zbekiston boshqaruvining respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” deya qayd etilgani eng muhim yangiklardan biri bo‘ldi.

Albatta, kuchli ijtimoiy himoya va muhtojlarga g‘amxo‘rlik – davlat siyosatining muhim yo‘nishi bo‘lib qoladi. Binobarin, tariximizda ilk bora O‘zbekiston – ijtimoiy davlat, deb belgilanmoqda. Insonga e‘tibor hamda g‘amxo‘rlik – davlat va jamiyatning eng asosiy burchi ekani mustahkamlandi. Kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta‘minlash, ishsizlikdan himoya qilish bo‘yicha davlat o‘ziga qator yangi majburiyatlar oldi. Umuman olganda, davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog‘liq konstitutsiyaviy normalar 3 barobar ko‘paydi. Xususan, har kimning uy-joyli bo‘lish huquqi belgilandi. Ushbu qoidaning amal qilishi har bir fuqaro, jumladan, yosh oilalarning o‘z boshpanasiga ega bo‘lishini ta‘minlab, kishilarning hayotdan rozilik darajasini oshiradi.

Aholi sog‘lig‘ini saqlash hamda kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlardan foydalanishiga oid qoidalar ham 4 barobarga oshdi. Bu aholi sog‘lig‘ini ishonchli muhofaza etish hamda onalar va bolalar o‘limi, yuqumli kasalliklar tahdidini bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. Ma‘lumot uchun aytadigan bo‘lsak, joriy yilda “Kafolatlangan xizmatlar paketi” qayta ko‘rib chiqilib, unda 20 turdagi kasalliklar bo‘yicha diagnostika, davolash va profilaktika xizmatlari hajmi to‘liq qamrab olindi. Ko‘p uchraydigan 20 turdagi kasalliklar bo‘yicha birlamchi bo‘g‘indagi bepul tahlil turlari 15 tadan 25 tagacha, tekshiruvlar 10 tadan 20 tagacha, dorilar soni 64 tadan 90 taga oshirildi.

Shuningdek, 49-moddasida davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta‘minlash va atrof-muhitga zararli ta‘sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi, barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi ham belgilandi. Ko‘rinib turibdiki, jamoatchilik nazorati o‘rnatilishi orqali bundan buyon shaharsozlikka oid masalalar xalqimiz bilan bamaslahat yechiladi.

Bundan tashqari, har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqi ham belgilanmoqda. Natijada aholimiz va kelajak avlod uchun ekologik toza hududni saqlab qolishning konstitutsiyaviy kafolati yaratildi.

Jahongir QURBONOV,

Toshkent davlat yuridik universiteti o‘qituvchisi

Inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati, daxlsiz huquqlari va manfaatlarini ta‘minlash, erkin va adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda demokratik huquqiy davlat qurish zamon talabi. Konstitutsiyamiz ushbu prinsiplarga asoslangani bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

JAMIYATNI INSON,
INSONNI ESA
TA‘LIM-TARBIYA
YUKSALTIRADI

Konstitutsiyamizda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarni uy-joy bilan ta‘minlash bo‘yicha davlatning majburiyatlari, mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorini belgilashda insonning munosib yashashini ta‘minlash hisobga olingan. Davlatning fuqarolar bandligini ta‘minlash, ishsizlikdan himoya qilish, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha majburiyatlari, fuqarolarning kafolatlangan tibbiy yordamga bo‘lgan huquqlari, davlat ta‘limning barcha shakllariga g‘amxo‘rlik qilishi, inklyuziv ta‘limni ta‘minlashi, o‘qituvchining maqomiga oid normalar konstitutsiya darajasida mustahkamlandi. Ijtimoiy davlatning vazifasi sifatida barcha uchun teng imkoniyatlar, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan yangi qoidalar o‘rnatildi. Davlatning ijtimoiy majburiyatlari uch baravardan ortiqqa ko‘paydi.

“
Ijtimoiy davlat prinsiplari dunyoning
rivojlangan bir qator davlatlari
konstitutsiyalarida ham o‘z aksini topgan.
Masalan, Germaniya, Ispaniya, Fransiya,
Turkiya va Xorvatiya kabi davlatlar ham
bugun ana shu yo‘ldan bormoqda.

Mazkur hujjatga Konstitutsiyaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi to‘g‘risidagi qoida kiritilgan bo‘lib, bu davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari, shu jumladan, sudlar tomonidan Konstitutsiya normalarini huquqni qo‘llash amaliyotida bevosita qo‘llagan holda qarorlar qabul qilish, fuqarolarning Konstitutsiya normalaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanishi va rioya etishini ko‘zda tutadi. Ma‘lumki, inson tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘lgan tabiiy va ajralmas huquqlar sirasiga inson hayoti, sha‘ni, qadr-qimmati, ozodligi, tengligi, erkin bo‘lishi, xavfsizligi, daxlsizligi kiradi va bu huquqlar qonunlarda belgilanganligi yoki belgilanmaganligidan qat‘iy nazar, insonga azaliy tegishlidir.

Konstitutsiyamizning 19-moddasida ushbu jihat ham alohida belgilangan bo‘lib, insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan normalariga muvofiq e‘tirof etilgan va kafolatlangan. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi. Ushbu qoida bilan insonning asosiy, tabiiy va ajralmas huquqlarini ta‘minlash davlat va jamiyatning eng asosiy vazifasi sifatida Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi. Mazkur huquqlarga yashash huquqi, erkinlikka bo‘lgan huquq, shaxsiy va uy-joy daxlsizligi, boshpana huquqi, mulk huquqi, sud himoyasiga bo‘lgan huquq, so‘z va

e‘tiqod erkinligi huquqi, erkin harakatlanish, yashash joyini tanlash, fuqarolikka ega bo‘lish, mehnat qilish huquqi, bilim olish huquqi, tibbiy va boshqa huquqlar kiradi. Ushbu qoida O‘zbekiston a‘zo bo‘lgan inson huquqlariga oid 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarda belgilangan. Jumladan, Italiya, Sloveniya, Chexiya va Ispaniya konstitutsiyalarida ham bu norma mavjud.

20-moddada “Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi”, degan insonparvar qoida kiritilgan. Mazkur qoidaga o‘xshash normalar O‘zbekiston Respublikasining jinoyatprotsessual, Bojxona, Soliq kodekslari, shuningdek, “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonunlarda ham o‘z aksini topgan bo‘lib, amaliyotda qonunchilikdagi nomuvofiqliklar iste‘molchilar, soliq to‘lovchilar, tadbirkorlik subyektlari, jinoyatprotsessi ishtirokchilari foydasiga talqin etildi. Endilikda ushbu qoidaning Konstitutsiyada mustahkamlanishi uning qo‘llanish doirasini yanada kengaytiradi.



Sir emas, fuqarolarga tegishli uy-joylarning jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilishi jarayonida “uy-joyini buzish”, “snos” degan gaplarga ko‘p duch kelamiz. Bu borada turli salbiy holatlar ortgani mazkur masalada qonunchilikni yanada takomillashtirishni taqozo etdi. Konstitutsiyada hech kim sudning qarorisiz va qonunga nomuvofiq holda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi aniq belgilandi. Ya‘ni, Konstitutsiyaning 47-moddasiga asosan, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko‘rgan zararining o‘rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta‘minlanadi.

Bosh qonunimizga yana bir yangi modda (52-modda) qo‘shildi. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma‘naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e‘tirof etildi. Davlat o‘qituvchilarning sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi abadiylashtirildi. Muallim va ustozlarni moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlash, ularning samarali mehnat faoliyati uchun munosib mehnat sharoitlari yaratilmoqda. Xususan, iste‘mol kreditlari berilishi, huquq va manfaatlari ta‘minlanayotgani, ayniqsa, adliya organlari tomonidan bu borada turli aksiyalar, loyihalar yo‘lga qo‘yilishi, amaliy-huquqiy ko‘mak berilayotgani, olis hududlarga borib ishlayotgan yuqori malakali o‘qituvchilar uchun ustamalar belgilanishi shular jumlasidandir. Jamiyatni inson, insonni esa ta‘lim-tarbiya yuksaltiradi. Millat va xalqning tafakkuri, uning intellektual salohiyatini oshirish, avvalo, o‘qituvchilar faoliyatiga bog‘liq. Shu bois, mazkur norma o‘qituvchiga ramziy ma‘noda “Millat bunyodkori” maqomini beradi.

Salohiddin NURIYEV,

Samarqand viloyat adliya boshqarmasi boshlig‘i

Nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yangilangan Konstitutsiyada tashqi siyosatning huquqiy asoslari yanada takomillashtirilib, konstitutsiyaviy maqomda mustahkamlab qo'yildi. Asosiy Qonunimizning 18-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni har tarafлама rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlaridan, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkin.

Ushbu konstitutsiyaviy normalardan kelib chiqqan holda O'zbekistonda maqsadga yo'naltirilgan va samarali tashqi (iqtisodiy) siyosat olib borilmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston ko'plab nufuzli xalqaro tashkilotlarning to'la huquqli a'zosi hisoblanadi. Shu bilan birga, davlatimiz qator mintaqaviy tashkilotlar, jumladan, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti faoliyatida ham faol ishtirok etib kelmoqda.

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT), 1985-yilda Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari tomonidan tuzilgan davlatlararo iqtisodiy tashkilot bo'lib, u 1977-yil 12-martda uch ta'sischi davlat – Eron, Pokiston va Turkiya tomonidan imzolangan Izmir shartnomasi asosida faoliyat yurituvchi Rivojlanish bo'yicha mintaqaviy hamkorlik tashkilotining vorisi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi, Qozog'iston, Ozarbayjon, Afg'oniston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston ham 1992-yildan buyon ushbu tashkilotga a'zo.

2023-yil 9-10 noyabr kunlari Toshkentda O'zbekiston raisligida IHT 16-sammiti bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur sammitda so'zlagan nutqida mavjud muammolar chuqur tahlil qilinib, ularni hal etish yo'llari tahlil etildi. Nutqda ta'kidlanganidek, 2022-yilda murakkab xalqaro ahvol, ziddiyatli iqtisodiy munosabatlar sharoitida, IHT davlatlari o'rtasidagi savdo ko'rsatkichi 85 milliard dollarni tashkil etdi. Bu esa tashkilotga a'zo davlatlarning umumiy tashqi savdosining atigi 8 foizini tashkil etadi. Davlatimiz rahbari takidlaganidek, afsuski, imtiyozli savdo to'g'risida shartnoma tuzishga bo'lgan ko'p yillik urinishlar kutilgan natijani bermayapti. To'siqlarsiz tashqi savdoni yo'lga qo'yishda hali ham ko'plab cheklovlar va qiyinchiliklar mavjud. Vaziyatga yangicha qarash va uni yaxshi tomonga o'zgartirish uchun buni ochiq tan olishimiz kerak.

O'zbekistonda so'nggi olti yilda yalpi ichki mahsulot hajmi 1,5 barobarga oshdi. 2030-yilga kelib mamlakat yalpi ichki mahsulotini ikki baravarga oshirishni rejalashtirmoqda. Bunga "yashil" iqtisodiyotni, zamonaviy infratuzilmani, yangi ish o'rinlarini yaratish, xususiy sektorni rag'batlantirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish orqali erishish rejalashtirilgan.

Prezidentimiz IHT 16-sammitining navbatdagi majlisidagi nutqida IHT davlatlari oldiga qo'yilgan ustuvor vazifalar va dolzarb tendensiyalarni belgilab berdi. Xususan, dunyoning siyosiy



BARQAROR RIVOJLANISH SARI YO'L

arxitekturasi tubdan o'zgarayotgani, uning global transformatsiyasi jarayonlari yuz berayotgani, bu murakkab jarayonlarda katta ta'sirga ega bo'lgan davlat tashkilotlari hamjihat va ahil harakat qilishi, yuzaga kelayotgan tahdid va chaqiriqlarga birgalikda samarali javob izlashi muhimligi ta'kidlandi.

Shunga bog'liq holda, Prezidentimiz tashabbusi bilan IHT doirasida savdoni soddalashtirish bo'yicha kelishuv qabul qilindi. Ushbu kelishuvda tovarlar

va xizmatlar savdosini yengillashtirish, texnikaviy va notarif to'siqlarni bartaraf etish, bojxona, fitosanitar va veterinar qoidalarni, elektron savdoni raqamlashtirishga katta e'tibor qaratildi. Mutaxassislar fikricha, sanab o'tilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida 2035-yilda o'zaro savdo hajmini kamida ikki baravar oshirishga erishish mumkin.

Sammitda transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Ma'lumki, dunyoda ochiq suv havzalariga chiqish imkoniyati yo'q 34 ta davlat bor. IHTga a'zo davlatlarning ko'pchiligi ham bunday imkoniyatga ega emas. Shu bilan birga, mamlakatimiz Osiyo-Tinch okeani mintaqasining hamda Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq va Yevropaning yirik bozorlari bilan bog'laydigan va hududlarimiz orqali o'tuvchi transkontinental transport yo'laklari imkoniyatlaridan to'liq foydalanishimiz kerak.

Sammitda turli transkontinental va multimodal transport koridorlaridan hozirgi kunda va kelajakda foydalanishning aniq variantlari taklif etildi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi, ishbiarmonlik aloqalari va sanoat markazlarini shakllantirish borasida salmoqli tajriba to'plangan. O'zbekiston ana shu amaliyotdan kelib chiqib, o'zaro investitsiyalar oqimini ko'paytirish va himoya qilish hamda sa-

noat kooperatsiyasini chuqurlashtirish bo'yicha Qo'shma harakatlar dasturini ishlab chiqdi va IHT Kotibiyatiga taqdim etdi. O'zbekiston Tashkilot doirasida Mintaqalararo sanoat ko'rgazmasini tashkil etish va uning ilk tadbirini 2024-yilda mamlakatimizda o'tkazish tashabbusi bilan chiqdi.

XXI asr nafaqat AKTning shiddatli rivojlanishi, balki ilm-fan, sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyot sohasidagi ulkan yutuqlar bilan bir qatorda, energiya resurslari, uglevododlarni qazib olish va qayta ishlash sohasidagi muammolar yuzaga kelgani, qayta tiklanmaydigan energiya manbalari sezilarli darajada kamaygani bilan tavsiflanadi. Ushbu holatlardan kelib chiqib, mamlakatimizda IHT bilan, energetika sohasidagi hamkorlik strategiyasining ustuvor yo'nalishi sifatida, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu yo'nalishdagi hamkorlikni muvofiqlashtirish va ko'lamini kengaytirish maqsadida O'zbekiston Prezidenti Tashkilot doirasida a'zo davlatlar energetika vazirlari alohida kengashini tuzishni taklif qildi.

Zamonaviy dunyoning dolzarb muammolaridan biri iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va atrof-muhitni muhofaza qilishda birgalikdagi sa'y-harakatlarni xalqaro darajaga ko'tarishni kuchaytirishdir. Markaziy Osiyo mintaqasi ham bu jarayonlardan mustasno emas. Bu borada O'zbekistonda 2024-yilda bo'lib o'tadigan Samarqand iqlim forumi doirasida platformaning birinchi konferensiyasini o'tkazish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Shu yil Samarqandda bo'lib o'tgan Jahon sayyohlik tashkiloti Bosh Assambleyasining 140 dan ortiq davlat ishtirokidagi sessiyasi nafaqat mintaqamiz, balki, jahon hamjamiyati uchun ham tarixiy voqea bo'ldi.

“

Davlatimiz rahbari IHT Kotibiyati huzurida a'zo mamlakatlarning turizm ma'muriyatlari va yetakchi ekspertlaridan iborat Turizm bo'yicha maslahat qo'mitasini tashkil etish bo'yicha yana bir taklif bilan chiqdi. Birinchi yig'ilish 2024-yilda IHT turistik poytaxti deb e'lon qilingan Shahrisabz shahrida o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Bugungi kunda madaniy-gumanitar hamkorlik har qachongidan ham ko'proq xalqlar va turli davlatlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, shu bois, O'zbekiston turli davlatlar va qit'alar o'rtasida madaniyat, san'at, kino va fundamental fan yo'nalishlaridagi hamkorlikni chuqurlashtirish maqsadida doimiy ravishda qator tadbirlarni o'tkazib kelmoqda.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mazkur tashkilot unga a'zo davlatlarning 16-sammitida ko'tarilgan murakkab muammolarni hal qilishda o'ziga xos xalqaro orientir, yo'naltiruvchi sifatida maydonga chiqishi shubhasizdir.

**Igor KUDRYAVSEV,
Mavlyuda AXMEDSHAYEVA,
TDYU professorlari**



4 EKOLOGIYA

Markaziy Osiyo mintaqasida so'nggi yillarda suv tanqisligi, cho'llanish jarayonining kuchayishi hamda biologik xilma-xillikning kamayishi kabi ekologik inqirozlar kuchaymoqda.

O'zbekiston xalqaro huquqning teng huquqli a'zosi sifatida ekologiya sohasida o'nlab xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qilib, bir qator muhim majburiyatlarni amalga oshirish yuzasidan milliy dastur va chora-tadbirlar rejasini amalga oshirmoqda. Bu o'z navbatida, fuqarolarning ekologik huquq va erkinliklarini ta'minlash, barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni tashkil etish hamda ekologik muhitga yetkazilayotgan salbiy oqibatlarini kamaytirish asosida iqlim o'zgarishining ta'sirini yumshatishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.



EKOLOGIK RIVOJLANISHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI

EKOLOGIK TAHDIDLAR MARKAZIDA OROL MUAMMOSI BOR

Konstitutsiyamizning 49-moddasida "Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi" deb mustahkamlangan. Ushbu huquqlarning belgilanishi O'zbekiston Respublikasi ratifikatsiya qilgan xalqaro hujjatlarni milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilishni ta'minlaydi. Fuqarolarning muhim ekologik huquqlarini davlat organlari tomonidan amalga oshirish mexanizmlarini belgilashga xizmat qiladi. Jumladan, ekologiya sohasida qabul qilingan qonunchilik hujjatlari, dasturlar va shaharsozlik hujjatlarining ijrosi yuzasidan jamoatchilik nazoratining olib borilishi, shuningdek, barpo

etilayotgan uy-joy, ijtimoiy inshootlar va sanoat obyektlariga oid qurilish hujjatlari loyihalarining jamoatchilik xabardor qilish, jamoatchilik eshituvi va ekspertizasidan o'tkazilishi kabi muhim chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, mazkur moddada "Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi" deb ifodalangan.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi ekologik tahdidlarning markazida, albatta, Orol dengizining qurishi bilan bog'liq murakkab vaziyat yotadi. Mintaqadagi ekologiya tizimini yaxshilash, biologik xilma-xillikni tiklash, cho'llanish jarayonlarining oldini olish va aholining ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash hamda iqlim o'zgarishlariga moslashish kabi dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlarini tashkil etadi.

MAJBURIYAT VA TALABLAR

Konstitutsiyamizning bir necha moddalarida ekologik majburiyatlar va talablar ham belgilangan. Xususan, 61-moddada "Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart. Tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi" deb ifodalangan.

Asosiy qonunimizning 62-moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar" deb alohida ta'kidlangan. Har bir fuqaro tabiatni muhofaza qilish qoida-talablariga qat'iy rioya qilgandagina, o'zining ekologik madaniyatini namoyish etish orqali atrof tabiiy muhit holatini sog'lomlashtirish va yaxshilash imkonini beradi.

So'nggi yillarda global iqlim o'zgarishi fonida barcha davlatlarda sanoatning rivojlanishi va aholi sonining ortishi iqtisodiyotning tabiiy resurslarga bo'lgan ehtiyojini keskin oshirmoqda, shuningdek, atrof-muhitga salbiy antropogen ta'sirni kuchaytirmoqda va issiqxona gazlari ajratmalarining ortishiga olib kelmoqda. Mulkdor va xo'jalik yurituvchi subyektlar, tadbirkorlarning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati kundankunga kengaymoqda. Shuning uchun ham Konstitutsiyamizning 66-moddasida "Mulkdor o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkka o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak", deb qat'iy belgilab qo'yilgan.

Ushbu normaning ahamiyati shundaki, mulkdorning mulkiy huquqlarini kafolatlaydi, mulk egalarning har qanday ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini ekologik normativ va standartlar doirasida amalga oshirish majburiyatini belgilaydi. Bu esa o'z navbatida, "yashil iqtisodiyot" tizimini shakllantirishning muhim omili bo'lib hisoblanadi.

SIYOSATNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Ma'lumki, atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash ekologik siyosatning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Konstitutsiyamizning 68-moddasida "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir" deb mustahkamlanishi davlat ekologik siyosatining muhim strategiyasini belgilaydi.

68-moddada shuningdek, quyidagi norma mustahkamlanganligi ham muhim. "Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin". Yerga nisbatan xususiy mulk huquqining joriy etilishi ilk marta konstitutsiya darajasida e'tirof etildi. Bundan tashqari, yer mamlakatimiz ekologik tizimining eng muhim resursi bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham yerga nisbatan xususiy mulk huquqini joriy etishda yer maydonlaridan faqat oqilona foydalanish prinsipiga to'liq amal qilgan holda, yerni xalqimizning milliy boyligi va davlatimizning mulki maqo-

midan kelib chiqqan holda belgilangan tartib-tamoyillar asosida belgilanishi mumkin.

EKOLOGIK VAKOLATLAR

Konstitutsiyada davlat organlarining huquqiy maqomiga alohida e'tibor qaratilgan. Ma'lumki, Vazirlar Mahkamasi mamlakatimizda ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Shuning uchun ham Konstitutsiyaning 115-moddasida hukumatimizning jamiyat va davlat hayoti uchun zarur bo'lgan eng muhim yo'nalishlari qatorida quyidagi ekologiya sohasidagi vakolati mustahkamlangan: "Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni va biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o'zgarishiga, epidemiyalarga, pandemiyalarga qarshi kurashish hamda ularning oqibatlarini yumshatish sohalarida yagona davlat siyosati amalga oshirishini ta'minlaydi".

123-moddada esa viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlarining muhim vakolatlari qatorida ekologiya sohasidagi vakolatlari quyidagicha belgilangan: "Hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish". Ushbu muhim norma atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlashdek muhim vazifalarni mahalliy hokimliklar zimmasiga yuklash orqali joylarda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuhrat FAYZIYEV,

Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori



Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, Bosh qomusimizning yangi tahririda moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman olganda, konstitutsiyamiz 65 foizga yangilandi. Ya'ni, o'zgarishlar eng muhim 10 ta yo'nalishda yuz berdi.



10 TA ENG MUHIM O'ZGARISH

1. Konstitutsiyamizning 1-moddasi "O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" deya o'zgartirildi.

2. Asosiy qonunimizning 15-moddasiga kiritilgan qo'shimchaga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.

3. Bosh qomusimizning 19-moddasida qayd etilishicha, O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

4. Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi. Bu yangilik Konstitutsiyamizning 20-moddasida o'z aksini topdi. Endi qonunchilikda aniq belgilab qo'yilmagan masalalarda ziddiyat yuzaga kelsa, masala davlat emas, inson foydasiga hal etiladi.

Bundan tashqari, turli hujjatlarni yuritishda davlat organlari tomonidan xato-kamchilik o'tgan taqdirda, masalan pensiya tayinlashda tegishli hujjatlar bazadan topilmay, noaniqlik yuzaga kelganida ham vaziyat fuqaro foydasiga hal etilishi kerak.

5. Inson huquqlari ijtimoiy axloq va jamoat tartibini saqlash maqsadida cheklanishi mumkin

Huquq va erkinliklarning cheklanishi masalasi Konstitutsiyamizning 21-moddasidan o'rin egalladi. Unga ko'ra, insonning huquq va erkinliklari faqat

qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkin.

Huquqlar cheklanishiga doir bunday me'yor konstitutsiyamizning 33-moddasiga asosan, so'z erkinligi huquqiga ham tegishli. Ya'ni, axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yiladi.

6. O'qituvchilar alohida e'tirofda

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi.

Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

Shu tariqa, ustozlar huquq sohasi vakili bo'lmagan, lekin oliy qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalariga aylandi.

7. Yer xususiy mulk bo'lishi mumkin

Asosiy qonunimizning 68-moddasi ikkinchi qismi "Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin" degan qoidadan iborat bo'ldi.

8. OAV faoliyatiga to'sqinlik qilish javobgarlikka sabab bo'ladi

Ommaviy axborot vositalariga oid qoida konstitutsiyamizning 81 va 82-moddalarida qayd etildi. Unga binoan, ommaviy axborot vositalari erkinidir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi. Ommaviy axborot vositalari o'zi taqdim etadigan axborotning ishonchliliigi uchun javobgardir.

Senzuraga yo'l qo'yilmaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

9. Yangilangan konstitutsiyamiz asosida Prezidentning vakolat muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi. Aniqrog'i, uning 106-moddasida "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan yetti yil muddatga saylanadi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti saylash tartibi qonun bilan belgilanadi" deya qayd etildi.

10. Viloyatlar, tuman va shahar hokimlari kengash raisligidan ketadi

Bosh qomusimizning 120-moddasi bilan mustahkamlangan qoidaga ko'ra, xalq deputatlari Kengashiga uning deputatlari orasidan qonunga muvofiq saylanadigan rais boshchilik qiladi. Viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o'zida xalq deputatlari Kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin emas.

Mazkur konstitutsiyaviy qoida talabidan kelib chiqqan holda viloyatlarda va Toshkent shahrida 2024-yilgi deputatlik saylovlari yakunlari bo'yicha, tuman va shaharlarda esa 2026-yil 1-yanvardan boshlab hokimlarning kengashlarda raislik qilishiga barham beriladi.

Sherzod ABDULLAYEV,
Qiziriq tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

Bosh prokuraturaning ma'lumotiga ko'ra, yer egasining roziligi olinmagan, ijarachi bilan kelishilmagan, tegishli xalq deputatlari kengashlarining qarori yoki Hukumat qarori chiqarilmagan, adliya organlarining ijobiy xulosasi olinmagan, kelishuvlar notarial tasdiqlanmagan qarorlar eng ko'p Andijon viloyatida qabul qilingan.

Konstitutsiyada uy-joy huquqi



Noqonuniy qarorlar Andijonda 48 ta, Toshkentda 11, Namanganda 7, Jizzaxda 6, Qoraqalpog'istonda 4, Buxoroda 3 va Qashqadaryoda 1 ta qabul qilingan. Buning oqibatida, Respublika bo'yicha 1 ming 338 ta holatda mulk egalaridan 221,5 milliard so'm qarzdorlik yuzaga kelib, ularning huquq va manfaatlarini buzilishiga yo'l qo'yilgan.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, bugungi kunda mazkur tizimli muammoni bartaraf etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu boisdan, har kim uy-joyli bo'lish huquqiga ega ekani umumxalq referendumida yangi tahrirda qabul qilingan oliy yuridik kuchga ega bo'lgan qonun – Konstitutsiya bilan belgilab qo'yildi.

Binobarin, Konstitutsiyaning 47-moddasida shaxs faqatgina sudning qarori va qonunga muvofiq tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, Konstitutsiyaning mazkur moddasi bilan shaxslarning mulk bilan bog'liq xarajatlarini qanday tartibda qoplashi lozimligi belgilangan. Bunda uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga:



uy-joyning qiymati;



ko'rilgan zararlarning o'ri qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi lozimligi mustahkamlangan.

Mulk huquqi daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan munosabatlarning Bosh qomus darajasida tartibga solinishi kelgusida ushbu muammoni bartaraf etishga va turar-joyga bo'lgan huquqlarni himoya qilishga xizmat qiladi.

Oybek XIDIROV,
"Davlat xizmatlarini rivojlantirish markazi" davlat muassasasi mas'ul xodimi

6 BILASIZMI?

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-noyabrda “Aholiga sanatoriyalarda davolanish uchun yo’llanmalar berish sohasiga axborot–texnologiyalarini joriy etish to’g’risida”gi qaroriga asosan, keksalar va nogironligi bo’lgan shaxslarga, sanatoriyalarda davolanish uchun yo’llanmalar berish bo’yicha davlat xizmatlari ko’rsatishning ma’muriy reglamentiga asosan, keksalar va nogironligi bo’lgan shaxslar yoki ularning vakillari, davlat xizmatidan foydalanish uchun, davlat xizmatlari markazlariga kelib, murojaat etadi yoki davlat xizmatlaridan elektron tarzda foydalanish uchun, YaIDXP orqali ro’yxatdan o’tadi. Mazkur reglament keksalar va nogironligi bo’lgan shaxslarga, davlat xizmatlari markazlari orqali, sanatoriyalarda davolanish uchun, yo’llanmalar berish bo’yicha davlat xizmati ko’rsatish tartibini belgilaydi.

YO’LLANMA KIMLARGA BERILADI?

Adliya vazirligi huzuridagi davlat xizmatlari markazlari tomonidan 2022-yil 1-oktabrdan boshlab:

- ☑ keksalar va nogironligi bo’lgan shaxslarga sanatoriyalarda davolanish uchun yo’llanmalar berish bo’yicha davlat xizmati YaIDXP orqali joriy etildi.

Yo’llanmalar quyidagi toifadagi keksalar va nogironligi bo’lgan shaxslarga beriladi:

- ☑ Urush nogironlari va qatnashchilariga tenglashtirilgan shaxslar;
- ☑ halok bo’lgan harbiy xizmatchilarning yangi nikohdan o’tmagan beva xotinlari (beva erlari);
- ☑ Chernobil AES halokati oqibatida nurlanish kasalligiga chalingan va uni boshidan kechirgan shaxslar, shuningdek, Chernobil halokati sababli nogiron bo’lib qolgan shaxslar;
- ☑ yadro poligonlari va boshqa radiatsiya-yadro obyektlarida harbiy xizmatni o’tagan pensiya yoshidagi shaxslar;
- ☑ I va II guruh nogironligi bo’lgan shaxslar, ko’zi ojiz I guruh nogironini kuzatib boruvchi shaxs;
- ☑ o’zgarlar parvarishiga muhtoj bo’lgan yolg’iz keksalar;
- ☑ yoshga doir pensiya oluvchilar.

Dilnoza ISROILOVA,
Qibray tuman davlat xizmatlari markazi mas’ul xodimi

Bizni bunday qilishga nima undagani haqida hech o’ylab ko’rganmisiz? Internet asri bo’lgan XXI asrda bolalar har kuni o’nlab yoki hatto yuzlab reklamalarga duch kelishadi. Tijorat kompaniyalari bolalarni jalb qilish uchun turli strategiyalardan foydalanishadi. Tadqiqotchi Kayl Adamsning ta’kidlashicha, yosh bolalar ko’pincha reklama maqsadini tushunmaydi. Bolalar tijorat kompaniyalari ularni reklama qilinyotgan mahsulotlarni sotib olishga ko’ndirishga harakat qilayotganini tushuna olmaydilar.

“Nega kompaniyalar bolalar marketingiga shunchalik ko’p pul va kuch sarflaydilar?” degan savol tug’ilishi mumkin. Kuzatishlarga qaraganda, mutaxassislar shunday xulosaga kelishganki, odatda, bolalar reklamada ko’rgan mahsulotini sotib olishga ota-onalarini ko’ndirar ekanlar. Mana bu raqamlarni qarang! 12 yoshgacha bo’lgan bolalar AQShdagi 200 milliard dollarlik oila xarajatlarga, shuningdek, o’z xaridlari orqali 25 milliard dollarga ta’sir qiladi. Bunday ta’sir va sarflash kuchi uchun, albatta, reklama beruvchilar ularni nishonga olishni xohlashadi.

Reklama beruvchilar bolalarni nishonga olishlari aniq! Bolalar kattalarga qaraganda ishonuvchan bo’lganligi uchun ular reklamada ko’rgan mahsulotlarni ko’proq xohlashadi. Bu esa aksariyat bolalarning sog’lig’i, xavfsizligi va hayoti farovonligiga salbiy ta’sir qiladi.

Amerika Pediatriya Akademiyasining ma’lumotlariga ko’ra, ba’zi mahsulotlarning zararli ta’siri o’g’ir oqibatlariga olib kelishi mumkin ekan. Reklamalar bolalar va o’smirlarning semirishiga, noto’g’ri ovqatlanishiga, ularning tamaki va spirtli ichimliklarni iste’mol qilishga odatlanishiga katta hissa qo’shishi mumkin. Ko’pincha bolalar zararli mahsulotlarning reklamalarini ko’rishadi. Bu mahsulotlardan foydalanish aksariyat hollarda ularning sog’lig’iga salbiy ta’sir qilishi isbotlangan.

Mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo’lmagan bolalar osongina reklamalar tuzog’iga ilinishadi. Kompaniyalar bolalarning bu holatini foyda uchun suiiste’mol

Deyarli har bir inson bolaligida televizor ko’rganini yoki biron-bir qurilmani o’ynaganini, mahsulotlar reklamasini ko’rganini eslaydi. Reklama qilinib, maqtalayotgan narsa o’yinchoqmi, oziq-ovqat mahsulotimi yoki kundalik hayotimizga deyarli ahamiyatsiz bo’lgan birorta buyummi, biz bola qalbimiz bilan uni baribir olishni istar edik. Ota-onamizning yoniga borib, ular yo’q deyishlarini bilsak ham, biz uchun o’sha narsani sotib olishlarini so’rar edik. Agar ota-onamiz bizni tinchlantira olishmasa, oxiri xohlagan narsamizni olib berishga majbur bo’lishar edi.

BOLALAR YILIGA 40 MINGTA REKLAMA KO’RADI(?!)

qiladilar. Bu ko’pincha bolaga ham, butun oilaga ham salbiy ta’sir ko’rsatadi. Bolalikda ko’plab reklamalarning salbiy ta’siriga duchor bo’lish keyingi hayotda zararli oqibatlarga olib kelishi mumkin ekan. Masalan, reklamalarning salbiy ta’siri bolalarda ko’proq tajovuzkor xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin. Chunki zo’ravonlik yoki tajovuzkor xatti-harakatlarni aks ettiruvchi reklamalar bolaning xatti-harakatiga shu qadar tezkor ta’sir qilishi mumkinki, ota-ona buni vaqtida payqamay qoladi.

ISU tadqiqoti shuni ko’rsatdiki, reklamalardagi zo’ravon xatti-harakatlar bolalarni tajovuzkor bo’lishga, xavfli vaziyatlarga tushib qolishga moyil qiladi. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, har kuni 170 ming nafar bola birinchi marotaba internetdan foydalanadi. Internetdan foydalanayotgan bolalar yiliga 40 mingdan ortiq reklamalarga duch keladi. Qanday qilib bunday raqamlar kelib chiqishi mumkin, deb o’ylashingiz mumkin. Bolalar onlayn o’yinlar o’ynashi, televizor ko’rishi, internet tarmog’idan ma’lumotlar qidirishi davomida xohlaydimi yo’qmi, turli xildagi o’zining yoshiga mos bo’lmagan reklamalarga duch keladi.

Reklamalarning salbiy tomonlari haqida gapirar ekanmiz, yana bir muhim jihatga e’tibor qaratish lozim. Internet tarmog’i orqali bolalarning shaxsiy ma’lumotlari

to’planib boradi. Shu orqali ularga tijorat kompaniyalari o’z mahsulotlarini o’tkazishga harakat qilishadi.

To’g’ri, mavjud reklamalarning barchasi ham zararli emas, foydali, bolalar uchun o’rnak bo’ladigan, ularni sog’lom turmush tarziga targ’ib qiladigan reklamalar ham mavjud. Shunday ekan, bolalar uchun namoyish etiladigan reklamalarni, bolalar ko’radigan telekanallarni, o’yinlarni nazorat qilish lozim.

Reklamalarni to’xtatib, butunlay cheklab bo’lmaydi. Ammo, ularni nazorat qilish, lozim hollarda filtr qilish lozim. Bu jaryonni, avvalo, ota-onalarning farzandlariga e’tibordan boshlash muhim. Bolalarga erta yoshdan smartfonlar bermaslik, ularning internet tarmog’idan foydalanishini nazorat qilib borish, televizorni farzandingiz bilan birga tomosha qilish kerak. Bolalar bilan birga ko’proq vaqt o’tkazish, bola uchun qiziq bo’lgan mavzularda gapirish, o’yinlar o’ynash, tengdoshlari bilan vaqt o’tkazishiga undash kabi oddiy harakatlar bolalarga qaratilgan reklamalarga to’siq bo’lishi mumkin. Bu esa, reklamalar to’g’risida yangi cheklovlar qo’yishga, qonunlar ishlab chiqishga zarurat qoldirmaydi.

Shohida OYBEKOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

ISHLARNI TAFTISH TARTIBIDA KO’RISH

2023-yil 27-sentabrda O’zbekiston Respublikasining “Sud qarorlarining qonuniyligi, asosliliigi va adolatliliigi tekshirish instituti takomillashtirishi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual kodeksiga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi qonuni qabul qilindi. Bu ham bo’lsa Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari samarasidir.

Mazkur qonun bilan Jinoyat protsessual kodeksiga kiritilgan eng muhim yangilik – bu sudda ishlarni taftish tartibida ko’rish bosqichining joriy qilinishidir. Shu bois, kodeks 510-521²¹-moddalarni o’z ichiga olgan va “Sudning hukmi, ajrimi ustidan taftish tartibida shikoyat (protest) berish” deb nomlangan yangi 56²-bob bilan to’ldirildi.

Jinoyat protsessual kodeksining 510-moddasiga muvofiq, Qoraqalpog’iston Respublikasi sudida, viloyatlar, Toshkent shahar sudlarida, O’zbekiston Respublikasi Harbiy sudida taftish tartibida jinoyat ishlari bo’yicha tuman (shahar) sudlarining, hududiy harbiy sudlarning apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko’rib chiqilgan hukmlari, ajrimlari, shuningdek ushbu sudlarning tuman (shahar) sudlari, hududiy harbiy sudlar tomonidan ko’rilgan ishlar bo’yicha apellyatsiya va kassatsiya instansiyasida chiqarilgan hukmlari, ajrimlari ko’rib chiqiladi.

Oliy sudning Jinoyat ishlari bo’yicha sudlov hay’atida esa jinoyat ishlari bo’yicha tuman (shahar) sudlarining, hududiy harbiy sudlarning Qoraqalpog’iston Respublikasi sudi, viloyatlar, Toshkent shahar sudlari, O’zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan apellyatsiya, kassatsiya yoki taftish tartibida ko’rib chiqilgan hukmlari, ajrimlari, shuningdek ushbu sudlar tomonidan tuman (shahar) sudlari, hududiy harbiy

sudlar tomonidan ko’rilgan ishlar bo’yicha apellyatsiya, kassatsiya yoki taftish tartibida chiqarilgan hukmlari va ajrimlari, shuningdek, Oliy sudning, Qoraqalpog’iston Respublikasi sudining, viloyatlar, Toshkent shahar sudlarining, O’zbekiston Respublikasi Harbiy sudining birinchi instansiya bo’yicha chiqarilgan va ayni shu sudlar tomonidan apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko’rib chiqilgan hukmlari, ajrimlari, shuningdek ushbu sudlar tomonidan birinchi instansiya tariqasida ko’rilgan ishlar bo’yicha apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida chiqarilgan hukmlari va ajrimlari taftish tartibida ko’rib chiqiladi.

Oliy sudning Jinoyat ishlari bo’yicha sudlov hay’ati tomonidan taftish tartibida chiqarilgan hukmlar, ajrimlar shu sudning Rayosatida taftish tartibida takroran ko’rib chiqilishi mumkin.

Kodeksning 521²-moddasiga binoan, tegishincha O’zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahar prokurori, O’zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori va ularga tenglashtirilgan prokurorlar, ularning o’rinbosarlari yoki ular tomonidan vakolat berilgan prokuror, himoyachi (ushbu Kodeksning 51 va 52-moddalarida ko’rsatilgan hollarda) jinoyat ishini taftish tartibida sud majlisida ko’rishda ishtirok etishi shart.

Mahkum, oqlangan shaxs, ularning hi-moyachilari va qonuniy vakillari, jabrlanuvchi, fuqaroviy da’vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari ishni taftish tartibida ko’rishda ishtirok etishga haqli. Jazoni ijro etish muassasasida bo’lgan yoki ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni o’tayotgan mahkumning ishtirok etishi zarurligi to’g’risidagi masala sud tomonidan hal etiladi. Mazkur shaxslar sud majlisida bevosita yoxud videokonferensaloqa tizimidan foydalanish orqali ishtirok etishi mumkin.

Bundan tashqari, Jinoyat protsessual kodeksining 521¹⁰-moddasida Oliy sudning Jinoyat ishlari bo’yicha sudlov hay’atiga kelib tushgan taftish tartibida berilgan shikoyatlar (xususiy shikoyatlar) bo’yicha qabul qilinadigan qarorlar asosi qayd etilgan. Ya’ni, taftish tartibida berilgan shikoyat (xususiy shikoyat) unga ilova qilingan materiallar bilan birga, zarur bo’lgan hollarda esa jinoyat ishi talab qilib olingan holda Oliy sudning sudyasi tomonidan o’rganib chiqiladi. Shikoyatni (xususiy shikoyatni) o’rganib chiqish natijalari bo’yicha O’zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi o’z ajrimi bilan sud qarorlarini taftish tartibida qayta ko’rib chiqish uchun asoslar mavjud emasligi to’g’risida, shikoyatni (xususiy shikoyatni) ish bilan birga ko’rib chiqish uchun O’zbekiston Respublikasi Oliy sudining Jinoyat ishlari bo’yicha sudlov hay’atiga o’tkazish haqida qaror qabul qiladi.

Taftish tartibida shikoyat (xususiy shikoyat) bergan shaxsga qabul qilingan qaror haqida uch sutka ichida xabar qilinadi.

Shuhrat KAMOLOV,
Xorazm viloyat sudi raisi

Ma'lumki, korrupsiya o'ziga tamagirlikni qamrab olgan holda jamiyatning ma'naviy ustunlari hamda demokratiyani yemirib, mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy taraqqiy etishi uchun ulkan xavf tug'diradi. Etimologik jihatdan "korrupsiya" atamasi lotincha "corruptio", ya'ni "buzish, sotib olish, pora evaziga og'dirish" degan ma'nolarni anglatadi. Korrupsiya shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish, qonunga xilof ravishda foydalanish, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish demakdir.

KORRUPSIYASIZ HAYOT – IJTIMOIY- SIYOSIY BARQARORLIK MEZONI



O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari sifatida Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti belgilangan bo'lib, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshirishlari nazarda tutilgan. Davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish, uni keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish borasida tizimli choralar ko'rilmogda.

Korrupsiya keltiradigan zarar barcha davlatlar uchun teng sanalib, mazkur illat davlatning turli sohalari, xususan, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jabhalarda amalga oshirilayotgan islohotlarga hamda mamlakatning xalqaro maydondagi imidji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazib, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi.

Shu bois, unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan. Korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatli kurash tizimini barpo etishda keng ko'lamli xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish va xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rganish muhimdir. Shu bilan birga, unga tanqidiy yondashgan holda milliy qonunchilik va amaliyotga tatbiq etish lozim. Biroq hozirgi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini yanada oshirishda jamoatchilikning faolligi yetishmayapti.

Korrupsiyaga qarshi kurashda jahon mamlakatlari tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, faqatgina jinoiy qonunchilikni og'irlashtirish yo'li bilan bu salbiy illatga qarshi kurashib bo'lmaydi. Lekin necha yildirki, har bir davlat bu illatdan qutulishning o'ziga xos chorasini izlaydi. Masalan, XXR qonunchiligida juda ko'p miqdorda pora olganlik uchun o'lim jazosi mavjud.

Bu illatni yengish uchun, birinchi navbatda, aholining huquqiy savodxonligini oshirish, fuqarolik institutlari faoliyatini kuchaytirish lozim. Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya masalalari qonunning bir nechta moddalarida o'z ifodasini topgan. Chunki huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuksak bo'lgan va huquqiy ta'lim va tarbiya jihatdan yetuk bo'lgan insonlar salbiy illat bo'lmish korrupsiyaga yo'l qo'ymaydi.

Davlatimiz rahbari loqaydlik, beparvolik, poraxo'rlik, korrupsiya, soxtakorlik, mansab vakolatini suiiste'mol qilishga qarshi kurash, ya'ni "Halollik vaksinasi" butun jamiyatning maqsadiga aylanishi kerakligini ko'p marta alohida ta'kidlab o'tishi bejiz emas. Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish barchamiz uchun ustuvor vazifa bo'lishi zarur. Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishimiz, korrupsiya – bu halokat, korrupsioner esa terroristdan ham xavfli falokat keltirishini unutmashimiz kerak.

To'liq TO'XTASINOV,
huquqshunos

ADABIY AYVON

Shodiyanning boshi qotdi. Pul topmasa, bo'lmaydi. Hozir kim ham qarz berardi? Xayoliga har doimgidek yolg'iz jigari – akasi keldi, ammo qaysi yuz bilan boradi. Ikki kun oldin jiyaniga "gepatit S" tashxisi qo'yilganini kelinoyisidan eshitgan edi.

Q A R Z

Bu kasallikning og'ir formasi bo'lib, bora-bora jigar serrozini keltirib chiqarishi mumkin ekan. Xudo asrasin! Akasiga qo'ng'iroq qilib, ovutgan bo'lsa-da, xabar ololmagan, bugun pul juda-juda zarur bo'lgani uchun ketayotgan edi.

Oyoqlari tosh boylagandek zil-zambil. Ko'nglida ming istihola bilan qadrdon darvozasi-dan kirib bordi. Onasi rayhonlar barq urgan hovli o'rtasidagi o'rik daraxti tagiga o'rnatilgan supada o'tirgan ekan. Uni ko'rib, nursiz ko'zlari charaqlab ketgandek bo'ldi.

– Hoy, Akromjon, singling keldi. Xosiyatxon, bu yoqqa qarang, Shodiya kelibdi.

Onasi har doimgidek o'rni-dan turib, uni mahkam bag'riga bosib ko'rishdi. Dimog'iga rayhon ismi urildi.

Keyin akasi chiqdi, ortidan kelinoyisi. Akasi peshonasidan o'pib qo'ydi, kelinoyisi quchoq ochib ko'rishdi.

– Akmaljon yaxshimi?

– Ha, ruhi tetik, alhamdulillah, kasalgayam o'xshamaydi, o'zing yaxshimisan? Akasi quvnoq gapirishga urinsa-da, ko'zlarida dard bor edi.

Shodiya yerga boqdi. "Qanday aytaman!" Qaynonasi "Akangizda pul bor, jigarlar shunaqa paytda bir-birini qo'llab yuborishi lozim!", – degandi.

– Usta boqib qiynalmayapsizmi? So'rashib o'tdi kelinoyisi dasturxon tuzarkan.

– Ha, amallayapmiz. O'zi shu masalada kelgandim. Aka, ob-havo xabaridan eshitgandim; erta-indin yomg'ir yog'ib qolishi mumkin ekan. Shu... Tomga ozgina pul yetmay qoldi. Ustalar avvalgi haqimizni to'lamasanglar,

ishni to'xtatamiz deyapdi. Shodiya shu gaplarni aytguncha qora terga tushib ketdi. Akasi indamadi, o'rnidan turib uyiga kirib ketdi. Qo'lida yelim qog'ozga o'ralgan bir dasta pul ko'tarib chiqdi.

– Ol, singlim, bori-shu, chamamda yetib qoladi. Tezroq yopib ola qolinglar, o'zi xom g'isht, yana bir ish ortmasin.

– Rahmat, aka, ammo o'zingiz... Ertaga Akmaljonning dorilariga pul kerak bo'lsa, qiynalib qolmaysizmi?

– Ungacha Xudo – poshsho. Alloh bir yo'l ko'rsatar. Uyalib kelinoyisiga qaradi. Samimiy nigohlar doimgidek tabassum qilib turardi.

– Olavering, Shodiyaxon, o'ylamang, akangizning boshi omon bo'lsin, Xudoyim jiyaningizni dardiga shifo bersin, – dedi.

Onasi akasini uzoq duo qildi.

– Bolam "Rahm (qarindoshlik) Arshga osilib: "Kim meni ulasa, Alloh uni ulasin. Kim meni uzsa, Alloh uni uzsin", deydi". Buni Imom Buxoriy rivoyat qilganlar. Silayi rahm qilganing uchun Alloh duolaringni ijobat qilsin. Alloh Akmaljonimni dardiga g'oyibiy shifo bersin! – dedi.

Ustalar ishga tushdi. Yugurib, yelib yurgan Shodiya telefoni jiringlaganini ham sezmay qolibdi. Akasi besh marta qo'ng'iroq qilibdi. Tinchlikmikan?

– Assalomu alaykum, aka!

– Shodiya, Akmalning takroriy tahlillari top-toza chiqdi, o'sha kuni shifoxonadagilar adashib boshqa odamning tahlilini berib yuborgan ekanlar.

– Voy, Xudoga shukur!

– O'sha pul senga mendan hadya! Qaytarishni o'ylama, singlim!

Feruza SALXODJAYEVA

Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi jamoasi markazning sud-avtotexnika ekspertizasi laboratoriyasining katta eksperti Shavkat Mirzayevga turmush o'rtog'i

Ma'rifatxon MIRZAYEVAning vafot etgani munosabati bilan chuqur hamdardlik bildiradi.

8 IMKONIYAT VA IMTIYOZ

Bugungi kunda dunyo bo'yicha oziq-ovqat tanqisligi kuchayib bormoqda. Eksportga qo'yilayotgan cheklovlar va transport-logistikadagi uzilishlar esa muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda. Shunday murakkab sharoitda kichik biznes va ishbilarmonlik subyektlari oldida katta vazifalar turibdi.

Rivojlangan davlatlarda tadbirkorlik subyektlari umumiy korxonalar sonining 90 foizdan ziyodini tashkil qiladi. E'tiborlisi, mehnatga layoqatli aholining 50 foizdan ortig'ining ish bilan bandligi kichik biznes vakillari tomonidan ta'minlangan.

Hozirgi kunga kelib mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun o'rta va kichik biznes asos bo'lib xizmat qilayotgani sir emas. Ularning davlatimiz real iqtisodiyotidagi ulushi yildan-yilga oshib bormoqda. Bugungi shiddatkor islohotlar davrida tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangani yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Yurtimizda oziq-ovqat xavfsizligini va ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash, issiqxona xo'jaliklari tomonidan mahsulot yetishtirish hajmini oshirish, issiqxonalar muqobil energiya manbalaridan foydalanishga o'tishini rag'batlantirish, mahalliy eksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning eksport salohiyatini oshirish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.



Bunda Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-oktabrdagi "Issiqxona xo'jaliklari va meva-sabzavotlarni eksport qiluvchi korxonalarining faoliyatini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ayni muddao bo'ldi. Qarorda issiqxona xo'jaligi uchun bir qator ijobiy yangiliklar borligi shu sohada faoliyat yuritayotgan har bir tadbirkorni quvontirdi.

Jumladan, bir qator tijorat banklariga kredit mablag'lari hisobidan issiqxona xo'jaligini tashkil qilgan har bir mijozning moliyaviy ahvolini inobatga olgan holda, ularning kreditlarini qaytarish muddatini uzaytirish choralarini ko'rish yuklatilgan bo'lsa, tegishli talablarni bajarganda ko'mir yoqilg'isiga o'tkazish belgilangan issiqxona xo'jaliklariga 2023/2024-yillar kuz-qish mavsumida tabiiy gaz yetkazilishini yo'lga qo'yish aytiladi.

HAYOTNING yangi sifatini yaratamiz!

Hozirda ichki va tashqi bozorda o'z o'rniga ega bo'lib borayotgan "Zarafshan Golden Group" kompaniyamiz tomonidan 2019 - yilda loyiha qiymati 6 million AQSh dollari bo'lgan 3 gektar issiqxona va 1 gektar ko'chat yetishtirish majmuasi faoliyat boshlagan edi. Buning natijasida 60 kishi ish bilan ta'minlangan.



Ulug'bek FAYZIYEV,
"Zarafshan Golden Group"
kompaniyasi ta'sischisi,
Oliy Majlis Senati a'zosi

Shuningdek, ko'mir yoqilg'isiga o'tkazilgan issiqxonalariga ayrim xarajatlarning bir qismi qoplanishi va ayrim yo'nalishdagi kreditlarning imtiyozli davr bilan berilishi, shu bilan birga serdaromad yangi ekin turlarini yetishtirish hamda hosildorlik va daromadni oshirish maqsadida issiqxona xo'jaliklariga xorijdan malakali agronom, entomolog va laboratoriya mutaxassislarini jalb qilish xarajatlarning yarmi jamg'armalar hisobidan to'lab berilishi sohaga yangicha nafas olib kirmoqda, desak aslo yangilishmaymiz.

Hozirda ichki va tashqi bozorda o'z o'rniga ega bo'lib borayotgan "Zarafshan Golden Group" kompaniyamiz tomonidan 2019-yilda loyiha qiymati 6 million AQSh dollari bo'lgan 3 gektar issiqxona va 1 gektar ko'chat yetishtirish majmuasi faoliyat boshlagan edi. Buning natijasida 60 kishi ish bilan ta'minlangan.

2021-yilda esa 6 gektar yer maydonida loyiha qiymati 9 million AQSh dollarilik shishali, energoteknik jamkor issiqxonaning ishga tushirilishi 70 kishini ish bilan ta'minladi.

Ko'chat yetishtirish majmuasida nafaqat viloyatimiz, balki qo'shni viloyatlarda joylashgan issiqxonalar uchun turli navdagi, pomidor, bodring, bulg'or qalampiri, baqlajon kabi ko'chatlar yetkazib berilmoqda.

Issiqxonalarda asosan 4 navdagi pomidor mahsulotlari yetishtirilib, ularning aksar qismi Qozog'iston va Rossiya davlatlariga eksport qilinmoqda.

Bugungi kunda majmua faoliyati kengaytirilib, ikki gektar yer maydonida Niderlandiya texnologiyalari asosida gidroponika usulidagi hamda yana boshqa ikki gektar yer maydonida Koreya texnologiyalari asosidagi zamonaviy issiqxonalar qurilishi ishlari jadal sur'atlarda olib borilmoqda.

Joriy yil yakunida mazkur loyihalar ishga tushishi natijasida 70 nafardan ortiq yangi ish o'rni yaratiladi. Shuningdek, loyiha doirasida kichik agrologistika markazi faoliyati yo'lga qo'yiladi. Bu esa, joriy yil yakuniga qadar mazkur markaz jahon bozoriga mahsulotlarimizni sotish va tashish ishlari bilan shug'ullana boshlaydi, degani.



Albatta, issiqxonamiz faoliyatini yuqoridagi hukumat qarori talablari bilan kelib chiqqan holda tashkil etgan holda, xorijga, aholiga hamda bozorlarimizga sifatli, xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib beramiz. Bu kabi barcha sa'y-harakatlarimiz zahirida mamlakatimizda xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish, xalqimiz farovonligini oshirish maqsadi mujassam.

